



UDK:94(460) "04/14"

Qaxramonjon A. MATXOLIQOV,

Tarix fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: kakhramon.matkholikov@gmail.com, ORCID 0009-0004-5872-7189

Sardor A. NORBOBOYEV,

Talaba, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: sardornorboboyev0611@gmail.com

PhD, katta ilmiy xodim T.Norqobilov taqrizi asosida

THE RENAISSANCE PHENOMENON: STATE POLICY, INTELLECTUAL CLIMATE, AND DEVELOPMENT (A CASE STUDY OF AL-ANDALUS)

Annotation

This article analyzes the political and social factors underlying the intellectual and cultural flourishing that took place in al-Andalus during the 8th–10th centuries. It examines the formation of state policies pursued by the Umayyad rulers to support science, education, and culture, as well as their role in transforming Córdoba into one of the major intellectual centers of the Islamic world. The article comparatively analyzes the experience of al-Andalus alongside the centers of the Islamic Golden Age in Baghdad and Central Asia, and identifies historical-typological similarities with the concept of the Third Renaissance in contemporary Uzbekistan.

Key words: al-Andalus, Córdoba, Umayyads, Renaissance, science, libraries, al-Hakam II, Abd al-Rahman III, Madinat al-Zahra.

RENESSANS FENOMENI: DAVLAT SIYOSATI, INTELEKTUAL MUHIT VA TARAQQIYOT (AL-ANDALUS MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada al-Andalusda VIII–X asrlarda yuz bergan intellektual va madaniy yuksalishning siyosiy hamda ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Umaviy hukmdorlari davrida ilm-fan, ta'lim va madaniyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining shakllanishi hamda uning Kordovani Islom olamining yirik ilmiy markazlaridan biriga aylantirishdagi o'rni yoritiladi. Maqolada al-Andalus tajribasi Bag'dod va Markaziy Osiyo uyg'onish markazlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, zamonaviy O'zbekistonning Uchinchi Renessans konsepsiyasi bilan tarixiy-tipologik o'xshashliklari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: al-Andalus, Kordova, Umaviylar, Renessans, ilm-fan, kutubxonalar, al-Hakam II, Abdurahmon III, Madinat az-Zahro.

ФЕНОМЕН РЕНЕССАНСА: ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА, ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ КЛИМАТ И РАЗВИТИЕ (НА ПРИМЕРЕ АЛЬ-АНДАЛУСА)

Аннотация

В статье анализируются политические и социальные факторы интеллектуального и культурного расцвета, происходившего в аль-Андалусе в VIII–X веках. Рассматривается формирование государственной политики правителей Омейядов, направленной на поддержку науки, образования и культуры, а также её роль в превращении Кордовы в один из крупнейших научно-интеллектуальных центров исламского мира. В статье проводится сравнительный анализ опыта аль-Андалуса с центрами интеллектуального расцвета в Багдаде и Центральной Азии, а также выявляются историко-типологические сходства с концепцией Третьего Ренессанса в современном Узбекистане.

Ключевые слова: аль-Андалус, Кордова, Омейяды, Ренессанс, наука, библиотеки, аль-Хакам II, Абд ар-Рахман III, Мадина аз-Захра.

Kirish. Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari shuni ko'rsatadiki, sivilizatsion uyg'onishlar tasodifan yuzaga kelmaydi. Ular kuchli davlat boshqaruvi, ilm-fanni strategik taraqqiyot yo'nalishi sifatida belgilash, olimlar va ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimi va kutubxonachilikni rivojlantirish kabi omillar uyg'unligida shakllanadi. Bag'doddagi "Bayt al-hikma", Markaziy Osiyodagi va Xorazm Ma'mun akademiyasi va Temuriylar davridagi muhit, Kordovadagi Umaviylar ilmiy siyosati ana shu umumiy qonuniyatning turli hududlardagi ifodasi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi O'zbekistonda ilgari surilayotgan uchinchi Renessans g'oyasi ham tarixiy vorislik tamoyiliga asoslanadi. Uning mazmuni mamlakat taraqqiyotini ilm-fan, ta'lim, innovatsiya va inson kapitali bilan bog'lashdan iborat bo'lib, bu jihatdan u Markaziy Osiyoning birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlarida

shakllangan ma'rifiy an'analarning zamonaviy davomidir. Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mazkur kontsepsiyada ham milliy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida bilimli inson, ilmiy salohiyat, innovatsion iqtisodiyot va yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. 2020-yilda Prezident mamlakat "uchinchi Renessans poydevorini barpo etish" ostonasida turganini ta'kidlab, yangi uyg'onishning hal qiluvchi omili sifatida ilm-fan, ta'lim va ma'naviy taraqqiyotni belgiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Al-Andalusda ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti masalasi Sharq va G'arb tarixshunosligida keng tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi dastlabki fundamental tadqiqotlar orasida J. F. O'Kallagan (J. F. O'Callaghan, 1975) T. Barkhard (T. Burckhardt, 1997) va E. M. Gerli (E. M. Gerli, 2003) asarlari muhim o'rin tutadi. Ushbu mualliflar asosan Kordova Umaviylari davrining siyosiy tarixi,

shaharsozlik, saroy madaniyati hamda xalifalikning Yevropa sivilizatsiyasiga ta'sirini yoritganlar. Biroq ularning tadqiqotlarida ilm-fan rivojining davlat siyosati bilan uzviy bog'liqligi yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan.

So'nggi yillarda M. Fierro (M. Fierro, 2017) va J. Samsó (J. Samsó, 2017) M. Forkada (M. Forkada, 2022) G. Makdisi (G. Makdisi, 1981) hamda D. Hamerli (D. Hamerly, 2017) kabi olimlar al-Andalusdagi ilmiy muhit, diniy-huquqiy maktablar, kutubxonalar va ilmiy institutlarning shakllanishiga alohida e'tibor qaratdilar. Ayniqsa, G. Makdisi hamda D. Hamerli ta'lim muassasalari va kutubxonalar tizimining taraqqiyotini chuqur tahlil qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarix fanining xolislik, tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy metod yordamida al-Andalusdagi ilmiy siyosatning Bag'dod va Markaziy Osiyodagi uyg'onish markazlari bilan umumiy va o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy-genetik metod asosida VIII–X asrlarda al-Andalusda ilm-fan taraqqiyotining bosqichma-bosqich shakllanish jarayoni yoritildi. Manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili usullari yordamida mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tanqidiy o'rganildi, ularning ilmiy qarashlari o'zaro qiyoslandi.

Tahlil va natijalar. Al-Andalus tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatida ilm-fan va ta'limga ustuvor ahamiyat berilishi qisqa muddatli natija emas, balki uzoq muddatli sivilizatsion taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi. Shu bois al-Andalus, Markaziy Osiyo uyg'onishi va zamonaviy O'zbekistonning uchinchi Renessans kontsepsiyasi o'rtasida muayyan tarixiy-tipologik o'xshashliklar mavjud. Ularning barchasini birlashtiruvchi umumiy xususiyat — ilmni davlat taraqqiyotining strategik resursi sifatida e'tirof etish, olimlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimini takomillashtirish va intellektual muhitni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli siyosatdir. Ana shu jihatdan al-Andalus Renessansi tajribasi nafaqat o'rta asrlar sivilizatsiyasi tarixi uchun, balki bugungi O'zbekistonda uchinchi Renessans g'oyasini amalga oshirishning tarixiy va nazariy asoslarini anglashda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Abdurahmon ad-Doxil (Abdurahmon I) hukmronligi al-Andalusda keyinchalik yuksak intellektual va madaniy taraqqiyotga olib kelgan Renessans jarayonining siyosiy poydevorini yaratib berdi. VIII asrning ikkinchi yarmida mamlakatda markazlashgan davlat boshqaruvining qaror topishi, ichki siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi hamda turli etnik va ijtimoiy guruhlarini yagona davlat tizimi atrofida birlashtirishga qaratilgan siyosat ilm-fan va madaniyat rivoji uchun zarur sharoitni vujudga keltirdi. Ayniqsa, Kordovaning yirik diniy va ilmiy markaz sifatida shakllanishi keyingi asrlarda uni butun Islom olamining eng nufuzli ilm markazlaridan biriga aylantirgan muhim omillardan biri bo'ldi. Al-Andalusning Sharq va G'arb tutashgan hududda joylashgani islom, nasroniylik va yahudiylilik sivilizatsiyalari o'rtasidagi ilmiy hamda madaniy almashinuv uchun qulay sharoit yaratdi[1].

Abdurahmon I vafotidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Hishom I (788-796) mazkur siyosatni izchil davom ettirdi. Xususan, ilm-fan va ta'limni davlat taraqqiyotining muhim yo'nalishi sifatida qo'llab-quvvatlab, yangi ilmiy markazlar va ta'lim muassasalarining tashkil etilishiga ko'maklashdi. Shu bilan birga, arab tilining davlat boshqaruvi, ilm-fan va madaniyat tili sifatida keng tarqalishini rag'batlantirdi. Bu jarayon natijasida arab tili nafaqat musulmon aholi, balki mahalliy ziyolilar o'rtasida ham ilmiy mulqotning asosiy vositasiga aylanib, asta-sekin Pireney yarimorolida lotin tilining o'rini egallay boshladi [2].

Al-Andalusda Vaqt o'tishi bilan faqih(huquqshunos)lar zimmasiga yuklatilgan ma'muriy vazifalar soni ortib, ularning ahamiyati va ko'lam tobora kengaya bordi. Turli hududlarda qozilar, masjidlar uchun imomlar, bozorlardagi tartib va savdoni nazorat qiluvchi muhtasiblar hamda boshqa davlat amaldorlariga ehtiyoj kuchaydi [3]. Natijada odamlar o'g'illariga puxta ta'lim berish va ularni ana shunday nufuzli davlat lavozimlarini egallashga tayyorlashga katta e'tibor bera boshladilar. Chunki bu mansablar nafaqat yuqori daromad manbai, balki katta ijtimoiy obro'-e'tibor ham keltirar edi. Yoshlar o'zaro raqobatlashib, imkon qadar erta ilm olishga va istiqbolli davlat xizmatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish orqali o'z kelajagini ta'minlashga intildilar.

IX asrning o'rtalariga kelib Kordova yuksak sivilizatsiya markaziga aylana boshladi. Bu jarayon, avvalo, amir Abdurahmon II ning hukmronligi davrida (822-852) olimlar va shoirarga ko'rsatgan homiylik bilan chambarchas bog'liq edi [4]. Ilmiy bilimlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida faqat diniy ilmlar emas, balki aniq va tabiiy fanlar ham rivojlana boshladi. Bu holat al-Andalus intellektual hayotining ko'p tarmoqli xususiyat kasb etishiga zamin yaratdi [5]. Shu bilan birga, Abdurahmon II hukmronligi davrida Bag'dod orqali fors madaniyatining ta'siri ham sezilarli darajada kuchaydi. Bu ta'sir davlat boshqaruvi, saroy marosimlari va madaniy hayotda namoyon bo'lib, saroyning intellektual qiyofasini yanada boyitdi. Ilgari Arab qabilachilik an'alariga xos bo'lgan boshqaruv uslubi o'miga markazlashgan va yuqori darajada tashkil etilgan sharqona saroy madaniyati qaror topdi. Bu o'zgarishlar ilm ahliga bo'lgan munosabat, ularning ijtimoiy maqomi hamda davlat boshqaruvida bilim va tajribaning ahamiyatini yanada oshirdi. Tarixchi Dozining ta'kidlashicha, musulmon Ispaniyasi hukmdorlari saroylari orasida Abdurahmon II davridagi saroy o'zining ulkanligi va madaniy muhiti bilan alohida ajralib turgan [6].

Saroydagi yirik shaxslardan biri Abu al-Hasan Ali ibn Nofi' — Ziryob edi. U nafaqat musiqachi va shoir, balki madaniy islohotchi sifatida ham al-Andalus Renessansi tarixida muhim o'rin egallaydi. Bag'dodda shakllangan yuksak madaniyat an'alarini Kordovada joriy etib, u musiqa, adabiyot, etiket, libos madaniyati va ovqatlanish o'binini takomillashtirishga katta hissa qo'shdi. Manbalarga ko'ra, u o'n mingga yaqin qo'shiq yaratgan va al-Andalusdagi ilk musiqa maktabiga asos solgan. Bu esa ilmiy muhitning faqat diniy yoki nazariy ilmlar bilan cheklanmaganini, balki san'at va madaniyatni ham qamrab olgan keng intellektual makonga aylanganini ko'rsatadi. Shuningdek, Abulqosim az-Zahroviy o'rta asrlarning eng mashhur jarrohi, tabibi va tibbiy asbob-uskunalar yaratuvchisi sifatida tanildi. Ibn Bojja (Avempace) astronomiya, tibbiyot, fizika, botanika, psixologiya va adabiyot sohalarida faoliyat yuritgan qomusiy olim bo'lib, ayniqsa tibbiyot va falsafa yo'nalishlaridagi ilmiy ishlari bilan shuhrat qozondi [7].

Al-Andalus Renessansi taraqqiyotida yangi bosqich Abdurahmon III (912-961) hukmronligi bilan bog'liq bo'lib, aynan shu davrda mamlakat siyosiy barqarorlikdan sivilizatsion yuksalish bosqichiga o'tdi. U amirlik taxtiga o'tirganidan taxminan o'n etti yil o'tib, 929-yili al-Andalusda Xalifalikni e'lon qildi va "an-Nosir li-Dinilloh" ("Alloh dinining himoyachisi") unvonini qabul qildi. Bu qaror davlat boshqaruvi tizimini yangi bosqichga olib chiqqan strategik siyosiy qadam bo'lib, Kordova xalifaligining mustaqil siyosiy va madaniy markaz sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Abdurahmon III al-Andalus tarixida ham Amir, ham xalifa unvoni bilan davlatni boshqargan yagona hukmdor sifatida e'tirof etiladi [8].

Abdurahmon III amalga oshirgan shaharsozlik siyosati ham mazkur ilm-fanga homiylik qilish jarayonining muhim

tarkibiy qismi hisoblanadi. U Kordova yaqinida Madinat az-Zahro shahrini barpo ettirib, uni davlatning ma'muriy va siyosiy markazi bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyat rivojlanadigan yirik saroy majmuasiga aylantirdi. G'arbiy Yevropadagi boshqa hech bir poytaxt na aholisi, na siyosiy qudrati, na ilmiy va madaniy salohiyati jihatidan Kordova bilan tenglasha olmas edi [9]. Abdurahmon III ilm-fanni davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholadi. Uning homiyligi ostida tashkil etilgan kutubxonalar va kitob to'plash siyosati natijasida olimlar yunon va fors mualliflarining arab tiliga tarjima qilingan asarlaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar [10].

Al-Andalus Renessansi o'zining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga al-Hakam II (961-976) hukmronligi davrida etdi. Hokimiyatga kelgach, u Kordovadagi saroy kutubxonasini rivojlantirishni davlat ahamiyatiga ega strategik vazifaga aylantirdi. Bu maqsadda Bag'dod, Qohira, Damashq, Basra va Kufa kabi yirik ilmiy markazlarda maxsus vakillar tayinlanib, ular orqali yangi qo'lyozmalar muntazam ravishda xarid qilinib turildi. Ayrim hollarda mualliflarga asarlarining birinchi nusxalarini Kordovadagi kutubxonaga yuborish uchun maxsus haq to'langanligi haqida ham ma'lumotlar uchraydi [11].

Tarixchi Maykl Xarrisning ma'lumotlariga ko'ra, kutubxona fondi taxminan 400 ming jild qo'lyozmadan iborat bo'lgan. Bu ko'rsatkich o'sha davr uchun favqulodda katta raqam hisoblanadi. Taqqoslash uchun, X asr Yevropasidagi

ko'plab monastir kutubxonalarida bir necha yuz yoki ming atrofidagina qo'lyozmalar saqlangan. Kordova kutubxonasi esa diniy adabiyotlar bilan cheklanib qolmasdan, falsafa, tibbiyot, astronomiya, matematika, geografiya, tarix, filologiya, tilshunoslik va adabiyot kabi ilm-fanning deyarli barcha asosiy sohalarini qamrab olgan edi [12]. Shu tariqa al-Andalus Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasida bilimlar almashinuvining eng muhim markazlaridan biriga aylandi. Bu jarayon keyinchalik Arab tilida saqlangan yunon, fors va Sharq mualliflari merosining lotin tiliga tarjima qilinishi orqali Yevropadagi intellektual uyg'onish jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa. Al-Andalus Renessansini faqat Iberiya yarimoroli tarixi doirasida emas, balki IX–XII asrlarda Islom sivilizatsiyasida yuz bergan umumiy intellektual yuksalish jarayonlarining g'arbiy qanoti sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur davrda Bag'dod, Markaziy Osiyo va al-Andalus o'zaro bog'langan yagona ilmiy-madaniy makonni tashkil etdi. Bu markazlarni birlashtirgan asosiy omil olimlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalari va kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish, ilmiy merosni tarjima qilish va bilimlar almashinuvini rag'batlantirish siyosati edi. Shu ma'noda mazkur uch hudud bir-biridan mustaqil emas, balki umumislomiy sivilizatsiyaning o'zaro bog'liq intellektual markazlari sifatida faoliyat ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR

1. Indah, F., Choirunnisak, C., Yusman, Y., Arifin, F. M., & Ashani, S. Science, Power, and Legitimacy: The Political Role of Rulers in the Dynamics of the Development of Science in the Classical Islamic World (Abbasid–Andalusian) // *Al-Qarawiyyin: Jurnal Ilmu Ushuluddin*, 1(4). 2025. pp. 273-287.
2. Al Husaini M. D. The Contribution of Islamic University of Andalusia to Revival Western World // *Global journal of human-social science: (D) History, Archaeology & Anthropology*, volume 14, issue 5, 2014. p. 18.
3. Fierro, M., Samsó, J. The formation of al-Andalus, part 2: Language, Religion, Culture and the Sciences. London: Routledge. 2017. p. 66.
4. O'Callaghan, J. F. A History of medieval Spain. Ithaca and London: Cornell University Press, 1975. p. 158.
5. Forcada M. Scholarly communities dedicated to the sciences in al-Andalus // *Routledge handbook on the sciences in Islamicate societies*, edited by Sonya Brentijes. London and New-York: Routledge, 2022. p 609.
6. Burckhardt. T. Moorish culture in Spain. Lahore: Suhail Academy, 1997. p. 33.
7. Nurcahya, Y., Sugiarto, D., Negara, T. N., Hambaliana, D., & Putra, R. A. The Umayyad Dynasty in Andalusia: Contributions to the Development of Science // *Dampeng: Journal of Art, Heritage and Culture*, 1(3). pp. 132-145. 2025.
8. Ainiyah, M., Setiawan, A. M. (2024). The Brilliant Legacy of Islam in Andalusia 711–1492: The Influence of Islamic Civilization's Golden Age on Europe's Renaissance // *El Tarikh: Journal of History, Culture and Islamic Civilization*, 5(2). pp. 104-121.
9. Gerli E. M. Abd al-Rahmān III, Caliph of Córdoba // *Medieval Iberia: An Encyclopedia*. New-York-London: Routledge, 2003. p 7.
10. Alotaibi, H. H. S. Cultural Impact of Scholars in the Andalusian Emirate (138-442 AH/756-1031 AD) // *Journal of Al-Tamaddun*, 18(2), 2023. pp. 13-21.
11. Makdisi G. The Rise of Colleges: Institutions of Learning in Islam and the West. Edinburgh: Edinburgh University Press, 1981. pp. 83-85.
12. Hamerly D. The Córdovan library of Caliph al-Hakam II // *Libraries: traditions and innovations*, edited by Melanie A. Kimball and Katherine M. Wisser. Berlin/Boston: Deutsch Nationalbibliothek, 2017. p. 8.
13. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yangi taraqqiyot davriga qadam qo'yamoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
14. Президентнинг Мустақиллик байрамига бағишланган нутқи (31 август 2020): <https://kun.uz/en/news/2020/08/31/shavkat-mirziyoyev-uzbekistan-is-on-the-threshold-of-a-new-era-the-third-renaissance>
15. UZA. Uzbekistan's Third Renaissance: Roots, Basis in Humanity, Science and Education. https://uza.uz/en/posts/uzbekistans-third-renaissance-roots-basis-in-humanity-science-and-education_285766